

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.Radjabova

Tarix fanini o'qitishda foydalaniladigan metodlar 322

D.D.J.NizomitdinovXV – XVII asr birinchi yarmida nemis tarixshunosligida Amir Temur shaxsi tavsifi va uning
harbiy yurushlari talqini 325**Қ.А.Пулатов**Борьба с полигамией, гендерным равенством и секуляристической сущностью в
социальных взглядах джадидов: научный анализ 329

ADABIYOTSHUNOSLIK

R.A.Ortiqov

Ingliz bolalar adabiyotidagi sarguzasht-fantastik asarlar poetikasiga doir 336

I.M.Jo'rayev

Zahiriddin Muhammad Bobur merosida xotin-qizlar obrazining tarixiy talqini 341

O.Z.DadajonovMaqsud Shayxzodaning "Mirzo ulug'bek" va Bertold Brextning "Galiley hayoti" dramalarida
olimlik motivi 350**S.A.Olimjonov**

Erix Mariya Remark va Ulug'bek Hamdam asarlarida badiiyat muammolari 354

A.A.Qosimov

The role of mythonyms in Tolkien's works and their linguistic analysis 360

A.A.Qosimov

Linguistic analysis of metaphors in Tolkien's novels 366

Д.Ш.Ибрагимова

Подходы преподавания зарубежной литературы в иноязычном контексте 370

M.N.Abduolimova

Lexical-structural features of mythonyms 376

N.Qurbanov

Intensification and Deintensification Expressed Through Hyperbola in English Novels 380

S.O'.Shermamatova

Teenager image in "Treasure island" by Robert Louis Stevenson 383

N.I.Tairova

XX asr adabiyotida ramziy obrazlarning poetik xususiyatlari doir 386

S.S.Usmanova

Psixologizm tarixiy asarda yetakchi obraz usuli sifatida 390

A.O'.Abdullayev

Ramz belgining maxsus turi sifatida 395

K.A.Toipvoldiyev

Реальный восток М.Ю.Лермонтова 401

А.А.Касимов, Р.Н.ДжагаспанинПроблема народного героя в литературе как отражение национального
самосознания 406**Р.Н.Джагаспанин**

Интерпретация образа Степана Разина как воплощение идеалов казачества в романе

В.М.Шукшина "Я пришел дать вам волю" 412

А.Р.Косимов

Сатира – литературный инструмент В.Шукшина (на примере романа «Любавины») 422

О.А.Акбаров

Национальная идентичность и культурная память в современной прозе 427

Э.Ф.ГиздулинИсторическое развитие постапокалиптических мотивов в
художественной литературе 431



RAMZ BELGINING MAXSUS TURI SIFATIDA

СИМВОЛ КАК ОСОБЫЙ ВИД ЗНАКА

SYMBOL AS A SPECIAL TYPE OF SIGN

Abdullayev Akmaljon O'ktamovich



FarDU, tadqiqotchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Maqolada ramzlarning belgining alohida, maxsus turi ekanligi turli soha olimlarning qarashlariga tayanilgan holda asoslab berilgan. Ramzning belgilarning boshqa turlari bilan umumiy va farqli tomonlari qiyosan o'rganilib, ushbu hodisaning alohida xususiyatlari ko'rsatib berilgan.

Abstract

The article, based on the views of scientists in various fields of science, substantiates that symbols represent a separate, special type of signs. The general and different aspects of the symbol and other types of signs are comparatively studied, and the features of this phenomenon are shown.

Аннотация

В статье исходя из взглядов ученых в различных сферах науки обосновывается, что символы представляют собой отдельный, особый вид знаков. Сравнительно изучены общие и различные стороны символа и других видов знаков, показаны особенности этого явления.

Kalit so'zlar: ramz, leksema, belgi, shartli belgi, lingvistik belgi, ifodalovchi, ifodalaniuvchi.

Ключевые слова: символ, лексема, знак, условный знак, языковой знак, обозначающий, обозначаемый.

Key words: symbol, lexeme, sign, conventional sign, linguistic sign, representative, representative.

KIRISH

Ramzlar fanning turli sohalarida turlicha nomlanishi holatlari mavjud. Masalan, adabiyyotshunoslikda ramz hodisasiga ayrim o'rnlarda ko'chim, metaforaning bir ko'rinishi sifatida qarash holatlari ham uchraydi. Xususan, "Adabiyyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha lug'ati"da ramz "metaforaning bir ko'rinishi bo'lib, shartli ravishda ko'chma ma'noda qo'llaniladigan so'z birikmasi, rasm, predmet" [21, 279] shaklida, professor D.Quronov va b. hammullifligidagi "Adabiyyotshunoslik lug'ati"da "ramz (ar. imo, ishora, imlash) – simvol; ko'chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'nova kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi: obrazlilik turi. Qator lug'atlarda ham ramzlarga shu kabi mazmunda ta'rif beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ma'lum bo'ladiki, ramz belgi, belgining maxsus turi hisoblanadi. Belgi esa "idrok qilinadigan narsa bo'lib, idrok qiluvchiga o'zi haqida va ushbu belgidan tashqarida bo'lgan boshqa narsa to'g'risida ma'lumot beruvchi vositadir" [13, 284]. Shu o'rinda ramzlarning belgi turlari – shartli belgi, signal, shifr, til belgilarilardan farqlash muhim hisoblanadi. Ko'plab adabiyyotlarda ramzlarni belgining boshqa turlari bilan almashtirib qo'llash kabi chalkashliklar mavjud. Xususan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da belgiga: "1. Tanib olish, ko'rsatish yoki farqlashga xizmat qiluvchi narsa; nishon, alomat; tamg'a. 2. Biror ma'no, mazmun yoki miqdor ifodalaydigan grafik alomat, ishora. 3. Narsa, voqealarning o'ziga xos xususiyati, sifati. 4. Ichki kechinma, holatdan, kasallikdan dalolat beruvchi tashqi alomat; ramz" [19, 220-221] sifatida ta'rif beriladi. Ramz belgining alohida turi bo'lishiga qaramay, lug'atda "Ichki kechinma, holatdan, kasallikdan dalolat beruvchi tashqi alomat; ramz" sifatida qayd etiladi. Ramzni belgilarning boshqa turlarida farqlash zaruratidan kelib chiqib, ushbu ikki hodisani umumiy va farqli tomonlari haqidagi qarashlarni tahlilga tortish maqsadga muvofiq.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ramzlar belgining alohida turi ekanligi dastlab semiotikaning asoschisi hisoblangan Ch.Pirs tomonidan qayd etilgan. Olim belgilarni sanam-belgilar, indeks-belgilar hamda simvol-belgilarga ajratadi va har biriga ta'rif beradi hamda dalillar keltiradi.

Ramzlarning belgilik tabiatini haqida F. de Sossyur asarlarida alohida e'tibor qaratilib, ularni belgilarga sinonim sifatida qo'llaydi va "shartli mustaqil ramz deyilganda eng muhim xususiyati mazmuni ifodalananayotgan obyekt bilan yaqqol aloqasi sezilmaydigan, keyingi taraqqiyoti obyektga bilvosita bog'liq bo'laman belgi turini tushunamiz", deb ta'kidlaydi [17, 91-92]. Gegel ham ramzning belgilarga oid ekanligini qayd etib, "u oddiy belgi emas, balki tashqi shakliga o'zi ifodalayotgan mazmunini singdirgan belgidir" [7, 242], deb hisoblaydi.

Ramzlarning belgi ekanligi olima D.Xudayberanova tomonidan ham ta'kidlanib, "ramz – tashqi dunyoning turli madaniyat vakillari ichki dunyosi, ongi, tafakkuri va ruhidagi aksi. Ramz belgi hisoblanib, uning dastlabki ma'nosidan boshqa ma'no uchun shakl sifatida foydalayiladi" [22, 234], degan fikrni ilgari suradi.

Rus olimi L.I.Timofeyev "Ramz hodisaning mohiyatini ma'lum nuqtayi nazardan shartli ravishda ifodalovchi ashyoviy yoki lug'aviy belgidir. Uning asosida doim ko'chma ma'no mavjud bo'ladi" [18, 310], deb aytib o'tadi.

Lingvokulturologiya sohasida tadqiqotlar olib borgan N.Alefirenko ramz belgining keng ma'no anglatuvchi alohida turi, undan foydalinish madaniy va semantik maydonni o'z ichiga olishini qayd etadi. Ramzning vazifasi jamoaviy ongni yagona semantik makon doirasida integratsiya qilish va ma'no olamlarini imkon qadar individuallashtirish bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi [2, 188].

Rus adabiyotshunosi K.Butirlin poetik ramzlarni o'rganish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida A.A.Potebnyaning birinchilardan bo'lib ramzni allegoriyanadan farqlanuvchi badiiy vosita, poetik obraz sifatida talqin etganini, olimning ramziy ifoda tushunchasining manbai belgiga borib taqalishini aytib o'tganini qayd etadi. A.Potebnya nazariyasiga ko'ra, ramzning tub mohiyati poetikaga daxldor hodisadan ko'ra psixologik tushunchaga yaqinroq keladi [5, 249].

Ramz belgining alohida turi ekanligiga faylasuf olimlar alohida e'tibor qaratadilar. Semiotik belgililar doirasida ham ramzlar belgining maxsus, o'ziga xos xususiyatlarga ega va shu xususiyatlari bilan boshqa belgilardan keskin farqlanishi qayd etiladi. Xususan, "Ramzlar belgi turi sifatida alohida xususiyatga ega, – deb ta'kidlaydi rus faylasufi L.O.Reznikov. "Ramz – bu shartli ravishda, unga yuklatilgan obraz orqali va u bilan aloqador holatda, ko'pincha, juda muhim va mavhum mazmunni ifodalash uchun ishlatalidigan tashqi hodisadir. Ramziy obrazning konkret mazmuni bilan bu obraz orqali ramzlashayotgan mavhum mazmun o'rtasidagi bog'liqlik ramzning o'ziga xos, uni boshqa belgilardan ajratib turadigan xususiyati hisoblanadi. Ramz va ramzlashayotgan predmet o'rtasidagi aloqa u yoki bu jihatdan motivlangan bo'ladi" [15, 149]. Olimning ushbu ta'rifi ramzning belgilik tabiatini yorqin ifoda etadi va uning to'laligicha belgilarga mansubligini ta'kidlaydi. Ramzlar sifatida juda xilma-xil narsalar yoki tushunchalar va ularning u yoki bu sabablarga ko'ra odamlarda o'ziga xos taassurot qoldirgan, ma'lum his-tuyg'ular, holatlar, munosabatlar bilan bog'liq xususiyatlari qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatib o'tiladi.

A.F.Losev ham ramzni "ijtimoiy-madaniy belgi, uning mazmuni intuitiv idrok etiladigan va og'zaki tavsiylarda adekvat ifodalangan tushuncha (g'oya)" deb hisoblaydi [12, 273]. Rus olimi S.Averinsev ham ramzning belgi ekanligiga ishora qilib, uning bir ko'rishini deb hisoblaydi, o'z o'mida belgi ham qaysidir ma'noda ramz ekanini to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi. U "ramz ma'nosi ochiqlangan belgidir, o'z o'mida belgi ham ochiqlanmagan ramzdir, ramzning "kurtagi"dir. Ramz maxsus turdag'i belgidir" [1, 279] deb aytib o'tadi.

Y.Karaulov esa ramzni "tushunchaning mazmun-mundarijasi nuqtayi nazaridan belgi va obraz o'rtasidagi oraliq hodisa" [10, 202], deb hisoblaydi. A.Medvedova ham ramzning belgilik xususiyatiga alohida urg'u berib, "ramz, albatta, belgi, lekin izomorf xususiyatlarga ega bo'lgan alohida turdag'i belgidir. U o'zining ifodalovchisiga nisbatan ayrim ikoniklik xususiyatini saqlaydi, ya'ni o'zi ramzlashtirayotgan narsaning xususiyatlarini takrorlaydi" [14, 31], degan fikrni ilgari suradi.

Beglilar tushunishni osonlashtirish uchun xizmat qilib, o'zaro fikr almashish, aloqa-aratashuv jarayonining ajralmas unsurlaridan hisoblanadi. Shu sababli uning mazmuni o'ta sodda,

ADABIYOTSHUNOSLIK

qisqa, aniq va jamiyat (soha)ning barcha a'zolari uchun birdek tushunarli bo'lishi lozim. Ramzlarda esa bu jarayonlar biroz murakkabroq ko'rinishga ega, ramziy mazmunni anglash uchun ko'proq idrok etish, fikrlash zarur.

Aytish lozimki, ramzlarni shartli belgilar hamda ramzlarga yondosh bo'lgan qator hodisalar bilan umumiy va farqli tomonlarini aniqlash muhim. Ushbu zaruratdan kelib chiqib, ramzlarni shartli belgilar bilan qiyoslashni lozim, deb topdik.

Ramz va shartli belgining umumiy va farqli tomonlariga qator olimlar tomonidan alohida e'tibor qaratilgan hamda bu borada muhim fikrlar bildirilgan. Jumladan, ramzlar belgilardan farqli ravishda denotat (ifodalalayotgan obyekt)ga to'g'ridan to'g'ri ishora qilmasligi I.Fadeyeva, I.Guzenkolar tomonidan qayd etiladi. Shu bilan birga, "belgi muloqotga, ramz aqliy faoliyatga oid" [20, 58] ekanligi aytib o'tiladi. Belgi, agar ramzlashtirilgan obyektning o'ziga (ushbu belgining kengaygan yoki intensional ma'nosi) emas, balki mavhum ma'noga yoki, ko'pincha, u bilan shartli ravishda bog'langan ma'nolarning butun majmuasiga nisbatan umumiy bo'lgan munosabatni nazarda tutsa, ramzga aylanishi mumkinligi taddiqotlar davomida aniqlangan [9, 50]. Shuningdek, olima ramz lingvistik belgidan farqli ravishda inson va jamiyatning ma'naviy, ijodiy imkoniyatlarini aks ettiruvchi ma'no va qadriyatlarni hisobga olishni nazarda tutadi, ular belgilarga nisbatan olganda tizimli emasligini ta'kidlaydi. Ramzlar tizim faqatgina ma'lum turdag'i kommunikativ vaziyatlar, xususan, marosim, madaniyatning institutsional shakllari va boshqalar bilan bog'liq holda yuzaga kelishi haqidagi fikrlar ilgari suriladi. Belgilar esa ma'lum bir jihatdan tizimlangan bo'ladi. Masalan, yo'l belgilari alohida tizimni tashkil etadi va ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan.

Ramz va belgi tushunchalari nemis faylasuf olimi Gegel tomonidan ham batatsil o'rganilgan. Biroq uning talqinida sezilarli ikkilanishlar kuzatiladi. Dastlab, faylasuf ramz va belgiga ifodalanyotgan obyekt bilan umumiy xususiyatlar mavjud yoki mavjud emasligini e'tiborga olgan holda o'zaro farq qiluvchi muqobil shakllar sifatida qaraydi. Shartli belgi va ma'no o'rtasida umumiylilikning mavjud emasligini alohida ta'kidlaydi [6, 295]. Keyinchalik esa o'zining "Estetikadan ma'ruzalar" asarida ramzlarni belgining maxsus turi sifatida e'tirof etadi va "ramz belgining bir turidir, ammo ramzda ma'no va uning ifodasi o'rtasidagi aloqa ularning mutlaqo erkin, ixtiyoriy birikuvidan yuzaga keladi" [8, 313], deb qayd etadi. Ushbu qarashlar natijasida, tilshunoslik, psixologiya, estetika va boshqa fanlarda ham ramzlarni belgilarning alohida turi sifatida o'rganishga alohida e'tibor qaratila boshladi.

Faylasuf L.Reznikovning "ramz va ramzlashtirilayotgan mazmun o'rtasidagi aloqani o'ta erkin deb bo'lmaydi", degan fikri yuqorida keltirib o'tdik. U ramzda shartlilik jihatları real umumiylilik bilan uyg'unlashishiga alohida e'tibor qaratadi. Aniq (konkret) mazmun orqali mavhum ramziy ma'no ifodalanishi ramzning o'ziga xos xususiyati ekanligi, bu uni belgilarning boshqa turidan ajratib turishini ta'kidlaydi [15, 149]. Ko'rindaniki, ramzlar o'zi aniq, ifodalanayotgan mazmun esa u yoki bu jihatdan mavhum (abstrakt) bo'ladi. Masalan, olma – muhabbat ramzi, tulpor – yigitlik ramzi va shu kabilalar.

Qayd etilishicha, ramzlar e'tibor tortuvchi, lekin aloqa-aratashuv jarayonining muhim elementi emas hamda biror adresatga ega bo'lmaydi va kommunikativ vazifadan holi. Ramz fikrlash jarayoniga, belgi – muloqot jarayoniga oiddir. Shu sababli ramzlarni faqat talqin qilishgina mumkin bo'ladi [3, 138].

Ramzlarning belgidan farqli ravishda interpretatsiya (talqin)ni talab qilishini V.Guzenko ham ta'kidlaydi. U "belgi, odatda, mushohadaning ekvivalenti bo'lib, illokutiv kuch (kommunikativ maqsad)ga ega bo'ladi va tushunishni talab qiladi. Ramz, belgidan farqli o'laroq, interpretatsiyani talab qiladi, chunki u muayyan kommunikativ vaziyatda va inson ongida murakkab mexanizmga ega bo'ladi" [9, 50], deb aytib o'tadi. Olimaning fikriga ko'ra, belgilar kommunikatsiya jarayoniga, ramzlar esa fikrlash jarayoniga yaqin hisoblanadi.

Madaniyatshunoslikda ham ramz va belgilar o'zaro farqlanib, madaniy ramzning oddiy belgidan farqi o'zi anglatayotgan borliq bilan jonli ruhiy aloqani ta'minlab turishi deb ko'rsatiladi. Oddiy belgi o'ziga qat'iy biriktirilgan ma'noga egalik qiladi, shu orqali u mohiyatan polisemantik xususiyatlarga ega bo'lgan va kontekstga qarab turli xil talqinlarga ega bo'luvchi ramzdan keskin farq qiladi [23, 132] tarzidagi fikrlar ilgari suriladi. Aytish lozimki, aynan shu xususiyat ramz va belgini farqlashda asosiy hisoblanadi.

Olima D.Arutyunova ham ramzlar va belgilarni qiyosan o'rganib, ularning amaliy funksiyasi bilan bog'liq farqlarni ochib beradi. Xususan, "belgi va ramz hayotning turli sohalariga va har xil faoliyat turlariga tegishli. Ramz harakat dasturini belgilaydi va xatti-harakatlar modelini yaratadi; belgi aloqa va amaliy harakatlarni tartibga solish vositasi sifatida xizmat qiladi" [4, 88], deb aytib o'tadi. Shu bilan birga, ramz (obraz kabi) umumiyl xulq-atvor modelini yaratadi, belgi muayyan harakatlarni tartibga soladi, deb ta'kidlashi bilan birga, belgilar quruqlik, suv va havo yo'llari bo'ylab harakatni tartibga soladi, ramzlar hayot yo'llari bo'ylab olib borishini bildiradi. Belgining ma'nosi, ramzdan farqli o'laroq, nafaqat an'anaviy, balki o'ziga xos va aniq bo'lishi kerakligi, aks holda, belgidagi asl ma'no ifodalanmay, aloqa-arahashuv jarayonlari murakkablashishi ko'rsatib o'tiladi. Belgilar tushunishni, ramzlar izohni talab qiladi. Shuning uchun, "belgilar shartlilashadi, belgilar qat'iy lashadi" kabi fikrlarni ilgari suradi. Yuqorida fikrlardan ko'rindiki, shartli belgilarda anqlik, yaqqollik hamda uni tushunishdagi soddalik va qulaylik asosiy o'rinda turadi. Belgilar, odatda, faqat bir ma'noni ifodalaydi, ramzlar esa ko'p ma'noli bo'ladi. Masalan, "ayol" leksemasi ramz sifatida sadoqat, vafo, go'zallik, nafosat, noziklik, muhabbat kabi qator ma'nolarni ifodalaydi. Bu borada O'zbekiston Xalq shoiri A.Oripovning "Ayol" she'rini misol tariqasida keltirib o'tish mumkin. Sartaroshxona oynasidagi ayol tasviri esa, shartli, ekstralingvistik belgi sifatida bitta ma'no – sartaroshxona ayollar uchun mo'ljallanganini bildiradi. Uni tushunish uchun esa ortiqcha mulohaza va mushohada talab etilmaydi.

Ramzning ko'p ma'noga ega ekanligi rus olimasi I.Leontyevning tadqiqotlarida ham ko'rindidi. U "ramz ham o'ziga xos belgidir, lekin uning farqi shundaki, u cheksiz ko'p ma'noga ega bo'lishi mumkin. Belgi esa narsaning umumiyl ma'nolardan ajratib faqat ma'lum tomonlarigagina ishora qiladi. Ramz narsaning tasavvur qilish mumkin bo'lgan barcha ma'nolarini birlashtiradi, u go'yo ma'nolarning markazi bo'lib xizmat qiladi" [11, 19], deb ta'kidlaydi. Shuningdek, ramzning yana bir xususiyati shundaki, u cheksiz va ko'p ma'nolarga ishora qilish bilan birga, ushbu ma'nolarning yuzaga kelish qonuniyatlarini ham o'z ichiga oladi.

Ishimizda Gegel, L.Reznikov, F.Sossyur kabi olimlarning ramzlar haqidagi nazariyalariga bir necha o'rinda murojaat etdi. Ushbu olimlar ham ramzlar va belgilarni o'zaro qiyoslab, umumiyl va farqli tomonlari haqida atroflicha fikr yuritganlar. Ushbu fikrlarga tayangan holda ramz va belgi orasidagi tafovut dastlab ularning o'zları va ifoda etilayotgan ma'no o'rtasidagi aloqada ko'rinishini ta'kidlash mumkin. Belgi va u ifoda etayotgan ma'no o'rtasida bog'liqlik yoki aloqa bo'lishi ham, bo'imasligi ham mumkin. Shartli belgililar o'zi ifoda etayotgan mazmun bilan hech qanday mos kelmasligi ham mumkin. Shuning uchun "shartli" deyiladi. Masalan, lingvistik belgilarning deyarli barchasida shakl va mazmun o'rtasida umumiyl yoki aloqadorlik ko'rinxaydi.

Ramzlarda esa ifoda etuvchi va ifoda etilayotgan ma'no o'rtasidagi aloqa erkin ham emas, ixtiyorli ham. Ma'lum miqdorda ramz va ramziy ma'no orasida tabiiy aloqa mavjud bo'lib, bu o'ziga xos xarakter kasb etadi. Masalan, **gul** – qiz, umuman olganda, ayol ramzi bo'lsa, **chinor** – yigitlik, kuch-qudrat ramziy ma'nolariga ega. "**Gul**", "**chinor**" leksemalari va ular orqali ifodalananayotgan ramziy ma'no o'rtasida xiralashgan bo'lsa ham, ma'no aloqadorligini sezish mumkin. Shuningdek, **qalqon** – mustahkam himoya ramzi bo'lib, bu ma'noni ifodalash uchun biror bir boshqa predmet yoki so'zni qo'llab bo'lmaydi. Ko'rindiki, ramzlarda ifodalovchi va ifodaluvchi o'rtasida ichki bog'liqlik, albatta, mavjud bo'ladi.

Faylasuf L.O.Reznikovning qarashlari asosida ramzlar va shartli belgilarning yana quyidagi farqli tomonlari mavjud ekanligi aniqlandi [15, 149]:

- 1) ramzlar bevosita biror bir ish harakatga chaqirmaydi, biror hodisa haqida ogohlantirmaydi. Shartli belgilarning aksariyati esa aynan shu vazifani bajarishga qaratilgan. Masalan, yo'l harakati belgilari, narsalar solingen qutilardagi belgilar va b. Ramzlar, masalan, **ro'molcha** (muhabbat ramzi), **oq rang** (ezgulik ramzi) hech qanday ish-harakatga buyurmaydi (ramzlarning signal vazifasida qo'llanilish holati bundan mustasno);

- 2) ramzlar biror bir cheklangan vazifaga qaratilmagan. Shartli belgida esa buning aksini ko'rish mumkin. Masalan, narsalar qutisidagi soyabon tasviri faqat "Namgarchilikdan saqla!" degan buyruqdan boshqani bildirmaydi va boshqa vazifa bajarmaydi;

- 3) ramzlar o'zining yaqqol, aniq, obrazli mazmun-mundarijasiga ega. Ya'ni ramzlarda obrazlilik yuqori bo'ladi. Masalan, **kapalak** obrazi orqali unga hos bo'lgan noziklik, go'zallik, qisqa

ADABIYOTSHUNOSLIK

umr, gulga oshiqlik, asalari, chumoli kabilar orqali mehnatsevarlik kabi xususiyatlar gavdalanadi. Shartli belgilarda esa obrazlilik yaqqol namoyon bo'lmaydi;

4) ramz ongli va hissiy ravishda o'ta soddalashtirilgan bo'ladi, shartli belgi esa tabiatan sodda bo'ladi;

5) ramzlar o'ta darajada chuqur va keng ma'no ifodalaydi. Masalan, **qizil atirgul** birgina muhabbat tushunchasini emas, sadoqat, mehr, oila qurish, cheksiz hurmat kabi ma'nolari ifodalaydi. Shu jihatdan olganimizda aksariyat belgilari bir ma'noli, ramzlar esa ko'p ma'noli hisoblanadi;

6) ramzlarning o'zi aniq (konkret) bo'ladi, lekin ular ifodalayotgan ma'no, odatda mavhum bo'ladi. Misol uchun, **kabutar** tinchlik ramzi, **tulpor** yigitlik ramzi. Sharbat idishidagi biror meva tasviri esa shu ichimlik tayyorlangan mevaga ishora qiladi;

7) ramzlar ko'p hollarda lokal, ya'ni mahalliylashgan bo'ladi. Masalan, Yevropa mamlakatlari sariq rang hijron, ayriliq tushunchasini ramzlashtirsa, Xitoyda bu ramz yaxshilik, to'kinlikni ifodalaydi. Doira ichiga olingan uch qirrali yulduz, ya'ni "Mersedes" kompaniyasi shartli belgisi dunyoning hamma joyida bir xil ma'noni anglatadi. Dunyoning turli davlatlarda motam ramzi sifatida turli rang bildiruvchi leksemalar – **qora** (Yevropa), **oq** (Xitoy, Hindiston), **ko'k** (Markaziy Osiyo) kabilardan foydalaniadi. Masalan,

Sevgimiz o'ldimi? – Libosingiz **ko'k**...

(U.Azimov).

Shartli belgilarda bunday xususiyatlar juda kam kuzatiladi. Aksariyat belgilari xalqaro ahamiyatga ega bo'ladi (mas., fanlar, yo'l harakati bilan bog'liq belgilari).

Begilarning vazifasi qandaydir belgini o'zida aks ettirishdan iborat emas, ba'zi bir hodisa yoki holat, tushunchani tabiiy soddalashtirgan holda aniq ifodalashdan iboratdir. Bunda belgilari shartlik asosida (uchburchak, doira va boshqa) hosil qilinadi, qisqartirilib, soddalashtirilib beriladi. Ramzlarda esa obrazlilik asosiy o'nin tutadi. Shuning uchun ularni ramz deyishimizga obrazlilik asos bo'ladi, deb ayta olishimiz mumkin. Yo'l belgilardan uchburchak ichiga olingan yovvoyi hayvon tasviri, ushbu jonivorning o'zi yoki unga xos biror xarakterni emas, balki qo'riqxona yoki yovvoyi hayvonlar avtomobil yo'liga chiqib qolishi mumkinligi haqida xabar beradi va haydovchini ogohlantiradi.

Ramzlarda hissiy tuyg'u uyg'otish xususiyati yuqori bo'ladi va insonni falsafiy mushohada qilishga majburlaydi.

XULOSA

Yuqoridagilardan ko'rindan, belgilari va ramzlar ma'no va vazifasi jihatidan alohida hodisalar bo'lib, ularning barchasiga nisbatan "ramz" atamasini qo'llash maqsadga muvofiq emas. Shu o'rinda, aniq fanlar, kompyuter tili sohalarida qo'llanayotgan "simvol" atamasiga izoh berib o'tishni joiz deb topdik. Olimlarning fikrlariga tayanib, xulosa qilish mumkinki, aniq fanlardagi «simvol» funksional jihatdan hamda ifodalovchi-ifodalanuvchi orasidagi munosabat sababli shartli belgiga teng keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аверинцев С. Риторика и истоки европейской литературной традиции. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – С.279.
2. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка: учебное пособие. – М.: ФЛИНТА, 2016. – С.188.
3. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1998. – С.138.
4. Арутюнова Н.Д. Образ, метафора, Символ в контексте жизни и культуры / Филологические исследования. – М.: Наука, 1990. – С.88.
5. Бутырлин К.М. Проблема поэтического символа в русском литературоведении (XIX-XX вв). – Л.: Наука, 1972. – С.249.
6. Гегель Г. В. Ф. Энциклопедия философских наук: в трех томах. – М.: Мысль, 1977. Т.3: – С.295.
7. Гегель Г.В.Ф. Лекции по эстетике. Соч., Т. 12. – М.: ЛУЧ, 1938. – С.242.
8. Гегель, Г. В. Ф. Лекции по эстетике. Книга первая. Сочинения: в 14 т. – М.: Гос. соц.-экон, изд-во, 1938. Т. 12. – С.313.
9. Гузенко И. Христианская Символика в русском языке: вербализация, функционирование, эволюция: Дисс... канд. фил. наук. - Волгоград, 2009. – С.50.
10. Карапулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Издательство ЛКИ, 2010. – С.202.

11. Леонтьева И.П. Феномен символа: опыт осмыслиения и исследования в Европейской культуре: Автореф дисс... канд. философ. наук. – Москва, 2003. – С.19.
12. Лосев А.Ф. Проблема символа и реалистическое искусство. – М.: Искусство, 1995. – С.273.
13. Маслов Ю. Какие языковые единицы целесообразно считать знаками? – М.: Прогресс, 1967. – С.284.
14. Медведова А.В. Символическое значение как тип значение слова (на материале русских и английских обозначений обиходно-бытовых ситуаций, предметов и явлений материальной культуры. Дисс... канд. филол. наук. – Воронеж, 2000. – С.31.
15. Резников Л.О. Гнесиологические вопросы семиотики. – Ленинград: ЛОЛГУ, 1963. – С.149
16. Реформатский А. Введение в языкознание. Под ред. В.А. Виноградова. – М.: Аспект Пресс, 1996. – С.16.
17. Соссюр Ф. Заметки по общей лингвистике. – М.: Прогресс, 2000. – С.91-92
18. Тимофеев Л.И. Слово в стихе. – М.: Сов. писатель, 1987. – С.310.
19. Ўзбек тилининг изохли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида: – Тошкент: Ўзбекистон миллӣй энциклопедияси, 2006-2008. – Б.220-221.
20. Фадеева И.Е. Символ в культурной коммуникации. – М.: Человек , 2004. – № 6.– С.58.
21. Хатамов Н., Саримсақов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
22. Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Фил.фант.док-ри...дисс. – Тошкент, 2015.
23. Энциклопедический Словарь по культурологии / Под общей ред. проф. А.А. Радугина. – М.: Центр, 1997.